

**COMMONNESS OF THE SPIRITUAL HERITAGE OF THE PEOPLES OF
CENTRAL ASIA**

Mansurov U.N.

Professor of Nizami State University of Culture, Ph.D.

tel: 90 9336476

Annotation: This article presents information about the fact that Central Asia is not only a product of today's transition period, but also geographically close and densely located, the population of which historically has a single past, a single destiny, is harmoniously united with each other, has a single worldview and traditions, and at the same time, the heritage of our great scholars who made a significant contribution to the civilization of Central Asia.

Keywords: Central Asia, past history, commonality, worldview, spiritual heritage, people, views of thinkers, time, space, traditions, religion, internal and external relations, justice, Psalms, Torah, Bible, Quran, kindness, consequence, generosity.

MARKAZIY OSIYO XALQLARI MA'NAVIY ME'ROSINING MUSH-TARAKLIGI

Mansurov U.N.

Nizomiy nomidagi O'MPU professori, t.f.n.

tel: 90 9336476

Annotatsiya: Mazkur maqolada Markaziy Osiyo nafaqat bugungi o'tish davri mahsuli ekanligi, shuningdek jug'rofiy jihatdan bir-biriga yaqin va zich joylashgan bo'lib, aholi tarixan yagona o'tmishga, yagona taqdirga, bir-biriga uyg'unlashib ketganligi, yagona dunyoqarash va an'analarga egaligi, shu bilan birga Markaziy Osiyo sivilizatsiyasiga salmokdi xissa qo'shgan buyuk allomalarimizning merosi xususida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, o'tmish tarixi, mushtaraklik, dunyoqarash, ma'naviy me'ros, xalq, mutafakkirlar qarashlari, zamon, makon, an'anal, din, ichki va tashqi munosabat, adolat, Zabur, Tavrot, Injil, Qur'on, mehr-muruvvat, oqibat, saxovat.

Markaziy Osiyo nafaqat bugungi o'tish davri mahsuli, balki jug'rofiy, tarixiy-etnik va ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojdir. Chunonchi, bu mamlakatlar jug'rofiy jihatdan bir-biriga yaqin va zich joylashgan bo'lib, aholi tarixan yagona o'tmishga, yagona taqdirga, bir-biriga uyg'unlashib ketgan dunyoqarash va an'analarga ega. Ularning har qanday siyosiy va iqtisodiy hamdo'stlikdan ham baland turadigan qadimiy qadriyatlar bor. Ming yilliklar mobaynida shakllangan ma'naviy, madaniy, axloqiy, diniy va umuminsoniy mushtaraklik ham mavjud¹. Markaziy Osiyo qadimdan dunyoning yirik davlatlari tomonidan o'z

¹ Hayitova K. Mustaqillik va ma'naviy madaniyat. T.: 1995. B-47.

manfaatlari tutashgan geopolitik va geostrategik qulay mintaqa bo'lib, ayniqsa O'zbekiston hududlariga bu borada alohida e'tibor bilan qaralgan².

Dunyoviy muammolar, insoniyat taqdiriga daxldor masalalar yechimini topishda mamlakatlar va xalqlar, milliy manfaatlari hamda ehtiyojlaridan qat'i nazar, birgalikda o'zaro hamkorlik yo'llarini izlaydilar. Biroq, hech qanday hamkorlik, turmush tarzlari, urf-odatlar, ruhiyatlari uyg'unlashib ketgan yaqin qo'shni xalqlarning do'stligiga teng kelolmaydi. Chunki bu yerda ajdodlar ruhi bilan kelajak avlodlar bog'liqligi, bir butun zamin – Ona Vatan yaxlitligi kabi muqaddas tuyg'u doimo barqarordir. Manaviy, ilmiy va estetik qadriyatlar xalqimizning turmush tarzida an'anaviy madaniyatida muxim o'rin olgan.³ Bizning Markaziy Osiyo va jaxon sivilizatsiyaini rivojlantirishga bebaho xissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz Muso Xorazmiy, Imom Buxoriy, Hakim Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Imom Motrudiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'beklar o'sib ulg'aygan⁴, va ijod qilgan. Ma'luki jamiyat hayotining ma'naviy sohasi masalalari xar qanday jamiyatning va uning tuzilmalari asosida mavjud qonuniyatlarga tayangan xolda rivojlanib boradi. Bu jarayonlarning muvofaqiyatli amalga oshirilishi ko'p jixatdan o'tmish merosga, milliy ma'naviyatga jamiyat azolarining o'zaro munosabatlariga, ularning aqil idroki, bilim darajasiga bog'liqdir. Mamlakatimizda yashab o'zining bebaxo xazinalarini qoldirgan ulug' allomalarning ko'plab asarlarida shu bilan birga xozirgi kunda ta'lim tizimiga asos bo'lib xizmat qilayotgan darslik va o'quv qo'llanmalarda jamiyat xayotining ma'naviy soxalariga aloxida etibor qaratilgan. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida Markaziy Osiyo xalqlari xayotining ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari shu bilan birga manaviy qadriyatlarning mazmuni va moxiyati va bu borada olib borilayotgan jarayonlar xamda ularning axamiyati atroflicha batafsil yoritilgan⁵.

Markaziy Osiyo sivilizatsiyasiga salmokdi xissa qo'shgan buyuk allomalarimizning merosini o'zlashtirish xayotiy extiyojga aylandi. Ayniqsa, Imom Buxoriy, Imom atTermiziy, Hoja Bahouddin Nakshband, Hoja Axmad Yassaviy, AlXorazmiy, Axmad Fargoniy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Usmon Nosir va boshka ko'plab buyuk siymolarimiz ilmiy adabiy merosini o'rganish mamlakatimizda barpo etilayotgan demokratik jamiyatning milliy ma'naviy negizlarini tashkil etadi. Milliy ma'naviyatning diniy ildizlari deganda u inson ongi va ruxiyati bilan uzviy bog'liq ekani va shu bois uning goyaviy ildizlari diniy ta'limotlarga borib taqalishi tushuniladi. Ya'ni ko'pgina mafkuralarda «Zabur», «Tavrot», «Injil», «Qur'on» kabi iloxiy kitoblarda zikr etilgan ezgu g'oyalar muayyan darajada o'z ifodasini topganini ko'ramiz.

² Mamadaliev R. Dunyo mamlakatlari. – Toshkent. "Muxarrir" nashriyoti. 2012. – B. 155.

³ Xo'jamurodov I. Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglash.T.: O'zbekiston, 1991.-B.76

⁴ Shamsuddinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. K.1. – Toshkent.: "Sharq", 2010. – B. 223 – 278.

⁵ Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 488 b. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2016. - 56 b. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 48 b. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 104 b.

Dunyoviy va diniy goyalar bir birini boyitib borgan sharoitda taraqqiyot yuksak bosqichga ko'tariladi. Bunga bashariyat tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk zakovat sohiblari yashab faoliyat ko'rsatgan davrlar yorqin misol bo'la oladi. Milliy-ma'naviyatning tarixiy shakllarini, mazmun-mohiyatini azal-azaldan ezgulik va yovuzlik, bunyodkorlik va vayronkorlik o'rtasidagi kurash dialektikasi belgilab keladi. Ya'ni, bosqinchilik, boshqalar hisobidan boyish, tajovuzkorlik, aqidaparastlik mafkuralariga qaramaqarshi o'laroq, ozodlik, mustaqillik va adolat g'oyalari uzluksiz maydonga chiqib, xalqlarning muzaffar bayrog'iga aylangan. Demak, ma'naviyat tarixan aniq xususiyatlarga ega ekan. U qadim zamonlardan to hozirgi kungacha dunyoning barcha xalqlari tomonidan yaratilgandir. Shu sababli har bir xalq va millatning o'ziga yarasha, o'ziga mos, o'ziga xos bo'lgan ma'naviyati bor. Ma'naviyat har bir xalqning ijtimoiy muhitiga bog'liq. Millatlarni yoki xalqlarni ma'naviyati yuksak yoki tuban deb baholash shovinizm va irqchilikning kelib chiqishiga zamin yaratadi. Xalq ma'naviyati, an'analari, urf odatlari milliy negizdan hosil bo'ladi va tarixiy ahamiyatiga ko'ra xos va nodir sanaladi. Ayni paytda har bir xalqning o'ziga xos madaniyati asrlar davomida boshqa xalqlarning madaniy yutuqlaridan ajralmagan holda yuzaga keladi, rivojlanadi. Xar bir avlod madaniy boylikni yangidan yaratmaydi, balki sivilizatsiya davomida shakllangan moddiy va ma'naviy boyliklarni qabul qiladi hamda boyitadi.

Islom dini o'z o'rnida ming yillar davomida xalqimizning muqaddas etiqodi ma'naviy xayotini asosiy vazifasini o'tab keldi. O'zbek xalqi ma'naviy merosi va muqaddas qadriyatlarning juda katta qismini, ya'ni "bebexo xazinaning" islomiy ma'naviyat va marifat, islom manbalari Quroni karim, Xadis shariflar, Tafsirlar, shariyat axkomlari va boshqa diniy xamda dunyoviy kitoblar tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, muqaddas dinimiz ma'naviyatimizning tarkibiy qismi sifatida inson ma'naviyatini shakillantirishdagi asosiy mezonlaridan biri sifatida ijtimoiy taraqqiyotida jamiyat taraqqiyotining ichki va tashqi munosabatlarida o'z o'rniga ega bo'lgan. Zero, islom ma'naviyatidagi mezonlar: insonparvarlik, vatanparvarlik, millatlar va dinlar aro totuvlik, xalqparvarlik, metinparvarlik xamda mehr – oqibat, muruvatlik, xamjihatlik axloq – odob kabi fazilatlarni shakillantirishda aloxida ahamiyatga egadir. Insonning, xalq, millatning tafakkuri, ma'naviy qarashlari, turmush tarzi jamoat ta'sirida shakllangan va taraqqiy etgan sharq xalqlari va yurtimiz ahliga xos bo'lgan mehr-muruvvat, oqibat, saxovat kabi ma'naviyatimizning yuksak ko'rinishlari xaqida gapirganda, ularning ijtimoiy-falsafiy zaminga aloxida e'tibor qaratish lozim. Chunki, har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy qarashlari o'z-o'zidan, bo'sh joyda shakllanib qolmaydi. Uning shakllanishi va taraqqiyotida o'tmish mutafakkirlarining falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy, ahloqiy ta'limotlarining ta'siri beqiyosdir. Markaziy Osiyo xonadoni – qadimiy xonadon. U o'z shonli tarixiga, buyuk an'analariga, dunyoviy madaniyatiga ega bo'lgan ulkan va fayzli oila. Ana shu mintaqada mavjud bo'lgan tarixiy an'analarni davom ettirish, ularni yangi tarixiy sharoitlarda boyitib borish, kelgusi avlodga har tomonlama yetuk, barkamol jamiyatni meros qoldirish barchamizning burchimiz.

Adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 488 b. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2016. - 56 b. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 48 b. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 104 b.

2. Hayitova K. Mustaqillik va ma'naviy madaniyat. T.: 1995. B-47.
3. Mamadaliev R. Dunyo mamlakatlari. – Toshkent. “Muxarrir” nashriyoti. 2012. – B. 155.
4. Xo'jamurodov I. Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglash. T.: O'zbekiston, 1991. -B.76
5. Shamsuddinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. K.1. – Toshkent.: “Sharq”, 2010. – B. 223 – 278.